



CASE FORMS IN THE IQON DIALECT

Xidraliyeva Zoxira Riskulovna

Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology,
Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15605483>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2025

Accepted: 30th May 2025

Online: 31st May 2025

KEYWORDS

literary language, dialect,
dialect, Turkic language,
Iqon dialect, form of
agreement, category of
agreement, head
agreement, accusative
agreement, accusative
agreement, declension
agreement, declension of
place, declension of exit.

ABSTRACT

This article discusses the specific features of the Iqon dialect, which is part of the northern Uzbek dialect group of South Kazakhstan, related to the forms of agreement and their phonetic variants.

IQON SHEVASIDA KELISHIK SHAKLLARI

Xidraliyeva Zoxira Riskulovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dots.v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15605483>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2025

Accepted: 30th May 2025

Online: 31st May 2025

KEYWORDS

adabiy til, sheva, lahja,
turkiy til, Iqon shevasi,
kelishik shakli, kelishik
kategoriyasi, bosh
kelishik, qaratqich
kelishigi, tushum
kelishigi, jo'nalish
kelishigi, o'rin payt
kelishigi, chiqish kelishigi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Janubiy Qozog'istonning shimoliy o'zbek shevalari guruhiga kiruvchi Iqon shevasida kelishik shakllari va ularning fonetik variantlari bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar yoritilgan.

ПАДЕЖНЫЕ ФОРМЫ В ИҚАНСКОМ ДИАЛЕКТЕ



Хидралиева Зохира Рискуловна

Доцент, доктор философии (PhD) по филологии,

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени
Алишера Навои

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15605483>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2025

Accepted: 30th May 2025

Online: 31st May 2025

KEYWORDS

литературный язык,
диалект, говор,
тюркский язык,
иканский диалект,
форма согласования,
категория
согласования, главное
согласование,
внимительное
согласование,
внимительное
согласование,
склонительное
согласование,
склонение места,
склонение выхода.

ABSTRACT

В статье рассматриваются специфические особенности иканского диалекта, входящего в группу североузбекских диалектов Южного Казахстана, связанные с формами согласования и их фонетическими вариантами.

Kelishik kategoriyasi turkiy tillarning bosh qonuniyatlaridan biri bo'lib, tilimizning tarixiy taraqqiyoti davomida ichki qonuniyatlari o'zgarishi asosida uning soni ba'zan o'zgarib turgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa 6ta kelishik shakli mavjud bo'lib, shevalarda ular miqdori turlicha, O'g'uz lahjasining aksariyat shevalarida, Toshkent, Farg'ona shevalarida 5ta kelishik, Qarshi, Buxoro, Surxondaryoning "y" lovchi shevalarida 4ta kelishik, qipchoq hamda shimoliy o'zbek shevalarida 6ta kelishik shakli qayd qilinadi. [Ashirbaev, 2021:50].

Janubiy Qozog'iston o'zbek shevalari kelishiklar miqdori jihatidan ikki guruhga: oltita kelishik shakliga va beshta kelishik shakliga ega. Ushbu arealning tarkibiga kiruvchi Iqon shevasi adabiy til kabi 6ta kelishik shakliga ega bo'lsa-da, ammo kelishik shakllari variantlari jihatdan xilma-xil bo'lib, ular o'ziga xos qonuniyatlarga bo'ysunadi. Quyida shular haqida fikr yuritamiz.

Bosh kelishik o'z vazifasi va ma'nosi jihatidan adabiy tildan farq qilmaydi, ya'ni turkiy tillar tarixining barcha davrida maxsus shaklga ega emas.

Qaratqich kelishigi. O'zbek shevalari qaratqich hamda tushum kelishiklari ko'rsatkichlarining xilma-xilligi va miqdori jihatidan boshqa turkiy tillar va ularning shevalaridan farq qiladi. Aksariyat turkiy tillarda olti kelishik shakli saqlanadi, lekin qaysi so'z shaklini kelishik deb hisoblash masalasi ham bor [Серебренников, Гаджиева 1986:75]. Shu



bilan birga, ularning shevalarda qo'llanish imkoniyatlari ham turlicha. Jumladan, Iqon shevasida ham qaratqich hamda tushum kelishiklarining adabiy til va boshqa o'zbek shevalari bilan umumiy xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birga, o'ziga xos o'zgachaligi ham mavjud.

O'zbek tilining aksariyat shevalarida qaratqich va tushum kelishiklari bir xil *-ni* affiksi bilan ifodalanib, u, tabiiyki, shakl jihatidan farqlanmaydi. Masalan, Toshkent, Farg'ona, Qarshi, Buxoro, Surxondaryoning "y" lovchi shevalari va h.k. Iqon shevasida esa qaratqich va tushum kelishiklari alohida ko'rsatkichlarga ega bo'lib, ularning turli pozitsiyalardagi variantlarini ko'rib chiqish mumkin. Yana ta'kidlaymizki, har qanday nutqiy vaziyatlarda ham qaratqich va tushum kelishiklari o'z o'rnida qo'llanadi, bu jihatdan Iqon shevasi Janubiy Qozog'iston dialektal zonasiga [Джурпаев, 1991:68] kiruvchi Chimkent shahar shevasidan farqlanadi. Ma'lumki, Chimkent shahar shevasi besh kelishikli sheva hisoblanadi [Мухаммаджонов, 1983:26].

Iqon shevasida singarmonizm qonuni amal qilganligi bois unga muvofiq kelishik affiksalarining mos shakllari, ya'ni old qator, orqa qator, lablangan, lablanmagan variantlari *-ni*, *-ni*, *-in*, *-in*, *-in*, *-in* qo'llanadi:

-ni varianti old qator unlili so'z asoslariga qo'shiladi: *Tüjānīn qujruyī je:rgä täggä:ndä. Mä:länīn ba:šida: ö:j* (Mahallaning boshidagi uy). *I:kkisinīn o:rtasidin qil ö:tmäjdī.*

-ni varianti orqa qator unlili so'z asoslariga qo'shiladi: *A:nanīn ba:γrī a:lamdin ke:η. A:nanīn je:gisi kä:gändä, ba:lanīn čiškisi kä:lädi. Dalanīn ba:šida: kä:zäk tikibo:tīriptī.*

Shuni ta'kidlash joizki, aksariyat tadqiqotlarda *-ni* // *nī* varianti singarmonizmli shevalarda sonor undoshlar bilan tugagan asoslarga ham qo'shilishi to'g'risida fikr yuritiladi, Iqon shevasi bundan mustasno bo'lib, affiksning bu varianti nafaqat sonor bilan tugagan asoslarga qo'shilishi, umuman, undosh bilan tugagan har qanday so'z asoslariga *-ni* // *nī* varianti hech bir o'rinda qo'shila olmaydi, balki barcha undoshlardan so'ng qaratqich kelishigida *-in* // *in* affiksi qo'shiladi.

-in varianti old qator undosh bilan tugagan so'z asosiga qo'shiladi: *biziñ ö:j, siziñ ma:l, i:nimiñ ba:lasī, siñnimiñ ba:jī. Ba:γda: si:rīñ ša:xīya ursa:η, ta:γda: si:rīñ tujayī sirqirajdi* (Bog'dagi sigirning shoxiga ursang, tog'dagi sigirning tuyog'i zirqiraydi). *Ba:zar ba:ryan jigitiñ ba:ši a:man kä:sä bäs.*

-in varianti orqa qator undosh bilan tugagan so'z asosiga qo'shiladi: *Ö:zi jo:γīñ, kö:zi joq. To:qqiz qī:zīñ to:lyayī bi kä:di.* (Juda ko'p ishning bir paytda tiqilinch bo'lishi). *A:jamīñ jīylayaniya čidaja:mma:dīm.* (Onamning yig'laganiga chiday olmadim). *Ba:jīñ a:šinī ba:jyuz qo:ryaptī.*

Qaratqich kelishigining *-in*, *-in* affiksli varianti siyrak uchraydi.

-in varianti tarkibida old qator lab unlisi mavjud bo'lgan va undosh bilan tugagan so'z asosiga qo'shiladi: *Ü:nūñ ö:ssi* (Ovozing o'chsin). *Kümūñ qī:zisa?* (Kimning qizisan?) *Kümūñ kä:lini?* (Kimning kelini?).

-in varianti tarkibida orqa qator lab unlisi mavjud bo'lgan va undosh bilan tugagan so'z asosiga qo'shiladi: *Quduyun i:čigä čü:šüp ke:tkänsä:nä, kö:rimmäjsä.*

Qaratqich kelishigining *-in*, *-in*, // *-in*, *-in* variantlarining "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'atit turk" asarlarida *biz*, *siz*, *kim* olmoshlari bilan chegaralanganligi, eski o'zbek tili taraqqiyotining ma'lum davrlari bilan chegaralangan yoki ayrim so'zlar uchungina xos bo'lganligi, O'rxun-Enasoy va qadimgi uyg'ur yodgorliklarida esa, ancha keng qo'llanganligi haqida ma'lumot



beriladi [Abdurahmonov, Shukurov, Mahmudov, 2008:85]. Iqon shevasida ham qaratqich kelishigining *-ün*, *-un* affiksli varianti siyrak uchraydi, lekin *-in*, *-in* variantlari juda faol. Qaratqich kelishigining *-in*, *-in* shakli turkiy tillarning birlamchi etimologik shakli ekanligi haqida ma'lumotlar bor [Щепёв, 1977: 30].

Men, *sen* kishilik olmoshlariga qaratqich kelishigi *-ning* affiksi qo'shilganda, tortilish (styajeniye) hodisasi yuz beradi: mening ~ *me:η*, sening *se:η* tarzida ifodalanadi: mening dugonam ~ *me:η e:šim*, sening dugonang ~ *se:η e:šin*; mening bolam ~ *me:η ba:lam*, sening bolang ~ *se:η ba:lan* ~ kabi.

Shevada *u*, *bu*, *šu* ko'rsatish olmoshlari qaratqich kelishigida turlanganda boshqa shevalarda uchramaydigan, ya'ni shevashunoslikdagi eksklyuziv holat qayd qilinadi. Ushbu olmoshlarga qaratqich kelishigining *-n* varianti qo'shiladi, bu affiks varianti nutqda *-m* variantiga o'tishi ham mumkin. Masalan: *Un(m) bilām sō:llāšmāgānimā ra:sa o:dī*. ~ U(**ning**) bilan gaplashmaganimga ko'p bo'ldi. *Bun(m) bilām e:dišip a:broj ta:pmajsa*. ~ Bu(**ning**) bilan aytishib, obro' topmaysan. *Šun(m) bilām Pa:tmanī qa:jtīp kō:rmādim*. ~ Shuning bilan Fotimani boshqa ko'rmadim.

Bunday qo'llanishni tortilish (styajeniye) hodisasi bilan bog'lash to'g'ri bo'lmaydi, chunki tortilish hodisasi yuz berganda so'z asosida fonetik o'zgarish yuz beradi. Bu misolimizda so'z asosi ham, affiksi ham fonetik o'zgarishga uchragan holda yangi formal shakl paydo bo'lmoqda. Buni morfonologik jarayon sifatida qarash mumkin va Iqon shevasining o'ziga xos, ya'ni eksklyuziv hodisasi sifatida qarash o'rinli bo'ladi.

A. Ishayev tomonidan Qarnoq va Iqon shevalarida unli bilan tugagan so'zlardan keyin qaratqich kelishigi ko'rsatkichining *-jīn*, *-jīn* variantlari qo'llanishi qayd etilgan: *ata+jīn ba:lasī*, *dala+jīn keṇnigi* [Ишаев, 1981: 23-24] kabi. Bu yanglish talqin. Bizningcha, keltirilgan misollarda *-jīn* qaratqich kelishigi ko'rsatkichining alohida varianti emas, balki otangning bolasi ~ *ata+jīn balasī*, dalangning kengligi ~ *dala+jīn keṇnigi* kabi keltirilgan misollarda uning tarkibi: *asos + II shaxs egalik shakli + qaratqich kelishigi shakllaridan (nol shakl)* iborat bo'lib, shevada unli bilan tugagan so'z va egalik affiksi o'rtasida *j(y)* undoshi orttirilgan. Masalan: dadangning kostyumi ~ *dādājīn kā:stimi*, bobongning asosi (hassasi) ~ *ba:ba:jīn hā:ssāsi* xolangning eri ~ *xa:lājīn ba:jī*. Ma'lum bo'ladiki, affiks deb qaralayotgan *-jīn* // *jīn* formantlarida qaratqich kelishigi affiksi yo'q, lekin qaratqich kelishigining belgisiz formasi ekanligini ta'kidlaymiz. Bu o'rinda *-in* // *in* affiksi – II shaxs egalik affiksdir, bu affiks unli bilan tugagan ot asoslariga qo'shilganligi uchun *j(y)* undoshi orttirilgan.

Aslida *dādājīn kā:stimi* birikmasida *dādājīn* so'z shakli *dādā* – so'z asosi, *j(y)* – orttirilgan tovush, *-in* II shaxs egalik affiksi, qaratqich kelishigi esa implitsit (belgisiz)dir.

Tushum kelishigi. Tushum kelishigi shakllarining o'zbek tili va uning shevalarida *-ni*, *-ni*, *-di*, *-dī*, *-ti*, *-tī*, *-i*, *-ī*, *-n* variantlari mavjud [Abdurahmonov, Shukurov, Mahmudov, 2008:87]. Shu bilan birga, uning ba'zi shevalarda *-nu*, *-nū* // *-du*, *-dū* // *-tu*, *-tū* lablangan variantlari [Пешеров, 1978: 135] Toshkent, Parkent, Namangan kabi shevalarda esa *-ši*, *-zi*, *-si*, *-ri*, *-yi* kabi 20dan ortiq assimilyativ variantlari borligi qayd qilingan. Iqon shevasida esa tushum kelishigining *-ni*, *-ni* variantlari qo'llanadi.

-ni affiksi barcha o'zbek shevalarida qo'llanadi, lekin uning asosga qo'shilish xususiyati turlicha. *-ni* affiksi Toshkent, Farg'ona kabi shevalarda har qanday unlilardan so'ng qo'shilsa, Iqon shevasida singarmonizm qonuniyatiga ko'ra old qator unli yoki undosh bilan tugagan



so'zlarga qo'shiladi: *kō:zini ju:mdī, bā:tini (yuzini) ju:dī, ā:kāžimni kō:rdim, künni ö:tkizdi, je:rni hä:jdädi*.

-ni affiksi singarmonizmli shevalardagidek faqat unli bilan tugagan orqa qator unlili asosga qo'shilsa, shevada orqa qator unlili har qanday so'z asosiga (unli va undosh bilan tugagan) qo'shiladi: *qo:jni so:jdī, da:lanī kō:rmāgān, ta:lnī kā:sti...* Demak, **-ni**, **-ni** affiks variantlaridan qay birining qo'shilishi so'z asosidagi old va orqa qator unliga bog'liq bo'ladi: *Ba:lanī ja:šdin, xa:tinni ba:šdin. Kō:krāgini a:ndaba bilan su:vayan* (Hech bir ishga aqli yetmaydigan, farosatsiz). *Je:tim ö:z na:nini je:jdi, kiši tū:rtkisini ā:štādi* (Yetim o'z mehnati bilan topgan halol nonini o'zgalar minnati bilan yeydi). *Rā:jim je:znāmnī ni de:pča:qiradi?*

Tushum kelishigining **-n** varianti asosiy shakllardan biri sifatida turkiy tillarda qadimdan qo'llanib kelgan¹. A. Ishayev Iqon shevasida ham tushum kelishigi affiksining **-n** varianti qo'llanganligi haqidagi ma'lumotni keltiradi [Ишайев, 1981:24]. Bu haqda quyidagicha fikr bildirish mumkin. Haqiqatan ham, **-n** shakli shevada xalq og'zaki ijodi asarlari tilida yo'qlovlar, lapar va terma qo'shiqlarda saqlanib qolmoqda:

Me:ma:n kā:sā, qo:j semizin so:jdīrīp, me:ma:n qīyan žigārim;

Je:tim – je:tim de:diñnā:jdi, je:tim na:nin e:diñnā:jdi;

Pā:rzānligiñ ö:jīn kō:rsāñ gü:lista:n,

Be:pā:rzāntiñ ö:ji qu:rsi gö:rista:n;

E:r jigit qa:jdīn a:lar sevgān ja:rīn,

A:ldida qoralayan qo:j bo:lmasa. (Sheva folkloridan)

Lekin jonli so'zlashuvda, ya'ni shevada ushbu shakl muomalada yo'q.

Shevada tushum kelishigining grammatik ma'nolari va belgisi, belgisiz qo'llanish xususiyatlari adabiy tildan farq qilmaydi:

A:q kō:jnāgim kirlā:tkān, ma:j jū:rāgim čöllā:tkān.

O:tira:rīmnī tura:rīmdīn zo:r qīya:n.

Ja:ši kā:ltā, ja:ziyi (gunohi) kō:p, žigārim. (Sheva folkloridan)

Jer häjdädiñ-nā? Pa:xta te:rip bo:diñ-na? I:š qip bo:dīm. Qiyoslang: I:šini qī:p bo:dīm. Bō:lāsini kōrgā:ni kā:pti. Q:qtu:čimīsni kō:rdim.

Jo'nalish kelishigi. Shevada jo'nalish kelishigining **-gā //ya //kā //qa //ā //a** variantlari mavjud bo'lib, shu affiksni qabul qiluvchi asosning xususiyati, hamda ularning unli, jarangli va jarangsiz tovushlar bilan tugashiga qarab tanlanadi.

-gā affiksi unli va jarangli undoshlar bilan tugagan, old qator unlili asoslarga qo'shiladi: *ža:nī i:čigā siyma:jdi. Zō:rāgā e:diškā bā:tim čidayajo:q. Sillārgā xa:bar be:gān-nā:jdi? Iškān a:ši i:čigā čü:šmäjdi.*

-ya affiksi unli va jarangli undoshlar bilan tugagan orqa qator unlili asoslarga qo'shiladi: *Mā:mlākāt xa:lasīya kā:lin o:yan. Tu:zini ičip, tu:zluyīya tüpürmä. Qa:umya (qavm) xabar be:diñnā? İmtilyan iškā, ta:rtiñyan ta:šya.*

-kā affiksi old qator unlili va jarangsiz undoshlar bilan tugagan asoslarga qo'shiladi: *İmtilyan iškā, tartiñyan ta:šya. I:t i:tkā saladī, i:t qujruiya. E:lčilār biskā āmās, Sārvār to:ti:jkā (xolanikiga) kā:gān ā:kā.*

¹ Abdurahmonov G. va b. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. – B. 88.



-**qa** affiksi orqa qator unlili, jarangsiz undoshlar bilan tugagan asoslarga qo'shiladi: *Ö:lmäs ba:liqqa su: uçrapti. Va:xti kä:sä, miñ qo:jlüyin bi qo:jlüqqa i:ši čü:šädi.*

-**ä // a** affiksi Xorazm og'uz shevalaridan farqli tarzda, faqat I va II shaxs egalik qo'shimchalarini olgan otlarga qo'shiladi.

-**ä** affiksi old qator unlili asoslarga qo'shiladi: *Tilimä tavba, ti:šimä tavba. I:timä ha:r, pišigimä na:mis. Ö:ziñä äp kö:rmägä:nni, birävgäjäm täñ kö:rmä.*

-**a** affiksi orqa qator unlili asoslarga qo'shiladi: *Äzi:zä xa:lama ni degän a:žiq sö:z e:tti. A:yama qı:z izläjä:tmis. O:ylıñ kümün qı:zini ä:ppe:gänsä? Qı:ziñä bä:taçar qıyansa-na? To:tima (opamga) bi:ni be:sän, xuda: saña miñni be:si.*

Olmoshlar jo'nalish kelishigi affikslari bilan turlanganda o'ziga xos kuchli fonetik o'zgarish – sinerezisga uchraydi. Masalan: **Sa:** *däm bärjätti, ba:la* (Bola senga yordam beryapti). **Ma:** *he:škümün minnätı kä:rägi jo:q* (Menga hech kimning minnati kerak emas). **Ke:** *ča:qıryan o:sa, şe: bar* (Qayerga chaqirgan bo'lsa, shu yerga bor). **Ke:** *ba:rışni bilmä:j turipma* (Qayerga borishni bilmay turibman). **Be:** *kä:gäniñ bäre:ri čä:ltik bilämö:v* (Bu yerga kelganlarning barchasi maqtanchoq, shekilli). Yuqoridagi qalin harflar bilan berilgan so'z shakllari belgisiz jo'nalish kelishigi shaklida bo'lib, uning mavjudligini unlining cho'ziqligi anglatib turadi. Iqon shevasida **ma:, sa:** shakllarining **maña, saña** variantlari ham qo'llanadi, bu jihatdan Xorazm o'g'uz shevalari bilan umumiylikka ega: *Maña ni: ži:n u:rdi, bilmä:jmä* (Menga nima jin tegdi, tushunmayapman). *Iqa:nda saña tä:ñ kä:lädo:n šibä:r jo:q* (Iqonda senga teng keladigan (uddaburo, epchil) tadbirkor yo'q).

Adabiy tildagi *qayoqqa, shu yoqqa, bu yoqqa, u yoqqa* so'zlariga jo'nalish kelishigi affiksining qo'shilishi munosabati bilan shevada kuchli fonetik o'zgarish yuz beradi va ular *k(i)jaqa, š(i)jaqa, b(i)jaqa, i:ja:qa* kabi fonetik ko'rinishda bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, so'zda singarmonizm buzilganlik taassurotini beradi, lekin bu so'zlar aslida qo'shma so'z bo'lganligi uchun ulardagi dastlabki bo'g'in o'zining mustaqil so'z ekanligini eslatib turibdi: *Sän k(i)jaqa ba:rsañ, mänäm š(i)jaqa ba:rama* (Sen qayoqqa borsang, men ham shu yoqqa boraman). *B(i)jaqajam, i:jaqajam jürädo:n kö:lik jo:yäkä.* (Bu yoqqa ham, u yoqqa ham yuradigan transport (ulov) yo'q ekan).

Jo'nalish kelishigining belgisiz qo'llanishi ham kuzatiladi, asosan, ish-harakatning yo'nalgan tomonini ko'rsatuvchi so'zlarda uchraydi: *Ba:zar ba:ryan jigitiñ atı a:man käsä bäs. Kä:ttäm A:lmata ke:dip, š(i)jaqtin ö:j-ža:j qıyan. Tä:girmän čišä, pütün čiqadi.*

O'rin payt kelishigi: Shevada o'rin-payt kelishigining -**dä // da, -tä // ta** shakllari mavjud bo'lib, singarmonizm qonuniga ko'ra asosning xususiyatiga qarab birikadi.

-**dä** affiksi old qator unlili hamda unli yoki jarangli undosh bilan tugagan asoslarga qo'shiladi: *Kä:ndä (mo'rida) kältäk je:dim, to:xitqada (o'choq og'zida) to:qmaq. Kü:ndä kä:gändin be:za:rma.*

-**da** affiksi orqa qator unlili yoki jarangli undosh bilan tugagan asoslarga qo'shiladi: *Ä:kkändä jo:q, tikkändä jo:q, xırma:nda ha:zir. A:ltıda i:stin kägä:mmä.* (Soat oltida ishdan kelganman).

Asos jarangsiz undosh bilan tugasa, o'rin-payt kelishigining -**tä // ta** variantlari qo'shiladi: -**tä** affiksi old qator unlili hamda jarangsiz undosh bilan tugagan asoslarga qo'shiladi: *I:štä kö:rimmäjdi, a:šta birinči. Je:ñ d(i)re:ktir je:ñ tär:ti:ptä i:šläte:tti.*



-ta affiksi orqa qator unlili hamda jarangsiz undosh bilan tugagan asoslarga qo'shiladi: *Tö:t a:jaqta bo:ta ta:tu:, i:kki a:jaqta ba:ža ta:tu:. A:jam künčuva:qta kö:rpäčä kö:kläjätti. E:šim, ju:rtta jo:q kö:jnäk kä:jipti.*

Chiqish kelishigi. Iqon shevasida chiqish kelishigi affiksining *-din, -dīn, -tin, -tīn* fonetik variantlari qo'llanadi: *dā:dāsīdin örgāndi, a:ldīndīn aqqan su:, xa:lasīdin so:radī, i:štīn kā:di, ba:štīn bašladī.*

Bu jihatdan Turkiston shevasi bilan umumiylikka ega.

Chiqish kelishigining *-din, -dīn, -tin, -tīn* shakllari eski o'zbek tilida asosiy shakl sifatida keng iste'molda bo'lganligi, "Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'atit turk" asarlarida ham, asosan, shu shakllar qo'llangani qayd etilgan [Abdurahmonov, Shukurov, Mahmudov, 2008:103].

-din affiksi asos old qator unlidan tarkib topgan hamda unli va jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: *Me:η ö:jimdin he:š kim qu:ruq ke:tkänämäs. Qīyan i:šīdin ä:jp ta:padī. Ni ta:psajam, tilīdin tapadī.*

-dīn affiksi asos orqa qator unlilardan tarkib topgan hamda unli va jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: *xa:lasīdin so:radī, ba:ladīn ä:šitti, qī:zīdin kö:rdi. Qadalyan ža:jīdin qa:n a:ladī. Hāmmā nā:sāni a:jamdīn a:lama. A:ndīndīn a:qqan su:(v)īn qa:dri jo:q. A:jaš žä: bö:rk, undīn sō:z a:b o:majdi.*

-tin affiksi jarangsiz undosh bilan tugagan old qatorli unlili so'zlarga qo'shiladi: *Äjäl ärkäktin pä:sra:q turadī. I:ttin qo:rqip, ba:qiribä:rdim.*

-tīn affiksi jarangsiz undosh bilan tugagan orqa qatorli so'zlarga qo'shiladi: *ba:štīn ba:šladī, sa:vuqtīn qo:rqip, ju:rttīn qa:majdi. Ba:la be:čara jo:qčiliqtīn ä:zilip ke:tti. Bula:qtīn kā:gān su:(v).*

Q. Muhammadjonov Janubiy Qozog'istonda yashovchi o'zbeklar uch yirik etnik guruh vakillaridan tashkil topganligi, shunga qaramay, qarluiq, o'g'uz va qipchoq lahjalarining barchasida chiqish kelishigining qadimiy *-din, -dīn, -tin, -tīn* formalari saqlanganligini ta'kidlaydi [Мухаммаджонов, 1983:34]. Haqiqatan, Iqon shevasida ham chiqish kelishigining *-din//dīn, -tin//tīn* shakllari singarmonizm qonuniga amal qilgan holda, asosning xususiyatiga ko'ra tanlanishini sheva faktlari tasdiqlaydi.

Iqon shevasida *-dān* affiksi va uning fonetik variantlari umuman uchramaydi. Kuzatishlarimiz, yuqorida qayd etilgan *-din, -dīn, -tin, -tīn* affikslarining ma'lum fonetik pozitsiyalarda mustahkam ekanligini ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, Iqon shevasida o'g'uz lahjasiga oid kelishiklarning turkiy yozma yodgorliklarda qayd etilgan qadimiy shakllari saqlanganligi, bu jihatdan mazkur sheva turk, turkman, ozarbayjon tillariga yaqin turishini ko'rsatadi.

References:

1. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008. – B. 85.
2. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 50.
3. Alimardanov E. I. Xorazm dialektal zonasida o'zbek va turkman shevalarining o'zaro ta'siri (kontaktologik aspekt): filol. fan. bo'yicha fals. dokt. ... diss. - Toshkent, 2024. - B 66-67.



4. Джураев А. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 68.
5. Ишаев А. Ўзбек шеваларида қаратқич ва тушум келишикларининг формалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1981. № 2. – Б. 23-24.
6. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 26.
7. Qodirov U. Shonazar Shoabdurahmonov qarluq lahjasi kelishiklari haqida // O'zbek filologiyasi: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2025. – B. 61-64.
8. Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 135.
9. Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. – Москва: Наука, 1986. – В. 75.
10. Turdaliyev A. Denov qarluqlar shevasida kelishiklarning qo'llanishi // Filologik tadqiqotlar: Til, adabiyot, ta'lim. – Termiz, 2022. – №7-8. – В. 25-28.
11. Xidraliyeva Z. O'zbek tili Iqon shevasining o'rganilish tarixidan // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Toshkent, 2021. – №11. – В. 346-349.
12. Щербак А. М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков – Ленинград: 1977. – С. 30.